https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Malikaxon Meliyeva

Menejment yo‘nalishi talabasi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

malikaxonmeliyeva057@gmail.com

+998942731145

Baxtiyor Botirov

Ta’lim menejmenti kafedrasi dotsenti, Jizzax davlat pedagogika universiteti

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH , UNING ASOSI BO‘LGAN QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYADAN FOYDALANISH KO‘RSATKICHLARI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kundagi global miqyosdagi ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof- muhitning ifloslanishi insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf keltirayotgani haqida va aynan shu sharoitda yashil iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanishning muhim modeli bo‘lib xizmat qilishi haqida yoritilgan.Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga, ekologik muhofaza va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Buning yaqqol misoli sifatida O‘zbekiston 2030 strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlar olib borilgan islohotlarni kiritishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, muqobil energiya, innovatsiyalar, yashil sertifikatlar, ekologik markirovkalash, energoaudit.

Annotation

The article examines current global environmental challenges, including climate change, the limited availability of natural resources, and environmental pollution, which pose serious threats to the sustainable development of humanity. In this context, the concept of the green economy is highlighted as an essential

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

model for sustainable development. The green economy aims not only to ensure economic growth but also to harmonize environmental protection and social well-being. A clear example of this approach can be seen in the goals and reforms outlined in Uzbekistan's "Uzbekistan–2030" Strategy.

Keywords: green economy, renewable energy, innovations, green certificates, environmental labeling, energy audit.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные глобальные экологические проблемы, включая изменение климата, ограниченность природных ресурсов и загрязнение окружающей среды, которые представляют серьёзную угрозу развитию человечества. В этих условиях концепция «зелёной экономики» рассматривается как важная модель устойчивого развития. Зелёная экономика направлена не только на обеспечение экономического роста, но и на гармонизацию экологической безопасности и социального благополучия. Наглядным примером данного подхода являются цели и проводимые реформы, предусмотренные в Стратегии «Узбекистан–2030».

Ключевые слова: зелёная экономика, возобновляемая энергия, инновации, зелёные сертификаты, экологическая маркировка, энергоаудит.

Yashil iqtisodiyot - bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta;minlash, energiya samaradorligini oshirish va aholi turmush tarzini yaxshilashga yo‘naltirilgan iqtisodiy tizimdir ushbu modelda iqtisodiy faoliyat atrof-muhitga minimal zarar yetkazgan holda amalga oshiriladi. Bugun jahon hamjamiyati tomonidan iqlim o‘zgarishlarini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri sifatida tan olinmoqda.Mutaxasislarning fikricha, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish maqsadida muhim qadamlaridan biri bu iqtisodiyotni "yashillashtirish"dir. Bu borada shu sohaga doir normativ hujjatlar qabul qilingan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Gidrometallurgiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar, 2030-yilgacha bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konseptsiyasi, 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotiga o‘tish strategiyasi shular jumlasidandir.Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikkasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida turli vazifalar belgilangan.Xususan Parij kelishuvi majburiyatlariga sodiq qolgan holda issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35%ga qisqartirish masuliyati yuklatilgan.Ushbu maqsadlarga qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlab chiqarish quvvatini 15GVt.ga yetkazish ,elektr energiya hajmini esa 30%ga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan .Sanoatda energiya samaradorligini 20%ga oshirish ,energiya sarfi hajmini esa 30% ga kamaytirish ko‘zda tutilgan.Suvdan samarali foydalanish samaradorligini oshirish uchun 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi va sug‘orish texnologiyalarini joriy etish maqsadida yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlar sonini 1milliardga yetkazish orqali shaharlarda yashil maydonlarni 30%ga kengaytirish , o‘rmon fondini 90 million kub metrga yetkazish ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.Jumladan , birgina 2022 yilning 9 oyi mobaynida xavflilik darajasi yuqori va o‘rta bo‘lgan metallurgiya , yog‘-moy , energetika va qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi 28 ta korxonada samaradorligi 95%ga kam bo‘lmagan 150ta chang-gaz tozalash uskunasi modernizatsiya qilinishi hisobiga 2,2 ming tonna chiqindi gazlari tashishning oldi olindi.

Maqolada quyidagi yondashuvlar orqali yoritildi:

1.Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda ja'mi istemoldagi ulushini 40%ga yetkazish.

2.Energiya samaradorligini oshirish.

Sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik maskirovkalash" amaliyotini joriy etish. 3GVt quvvatli 3ta issiqlik elektro stansiyalarini modernizatsiya qilish .Ko'p qavatli uy joylarning energiya samaradorligini (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish .Barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring (MRV)ni joriy etish .

3.Ekologik toza transport tizimini joriy etish.

Elektromobillar soni 2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, rasman O'zbekistonda 86,1 mingtadan oshirildi. Hududiy taqsimot bo'yicha 50 mingtasi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi.2024-yil hisobiga 24 mingdan ortiq elektromobil eksport qilingan.

4.Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish.


Organik oziq-ovqat va ichimliklarning global savdosi 2023-yilda 136mlrd yevrodan oshgan.2025-yilda 10ming gektarga, kelgusi yilda esa 100 ming gektarga yetishi kozda tutilmoqda.

5.Innovatsiyalarni ishlab chiqish va ularni tijoratlashtirish bozorlarini shakllantirish.

So'nggi yillardagi qishloq xo'jaligi , energetika va sanoat sohalaridagi innovatsion loyihalarga ajratilgan davlat grantlari 200mlrddan oshdi.Tijoratlashtirishdan tushgan foyda 15-20%ga o'smoqda.2024-yil holatiga ko'ra 1500dan ortiq faol startap loyihallar ro'yxatga olingan.

Statistikaga ko'ra:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026



O‘zbekiston va butun mintaqa davlatlari o‘rtasidagi qayta tiklanadigan energiya miqdorining yillar kesimidagi samradorlik statistikasi.



https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tahlillar:O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha chet el davlatlari ya’ni xorijiy tajribani o‘rganish uchun quyidagi tahlillardan foydalanish zarur.

1.Qiyosiy tahlil:Xorijiy mamlakatlar muvaffaqiyatining asosiy omillarini o‘rganish va ularni O‘zbekistonda amalda qo‘llash maqsadida yashil rivojlanish strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan davlatlar tahlilini o‘rganish.

2.Keyslarni tahlil qilish :Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishning xususiyatlari va usullarini aniqlash maqsadida oshqa davlatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilishininganiq misollarini o‘rganish.

3.SWOT tahlili:Chet el mamlakatlari tajribasidan kelib chiqqan holda O‘zbekistondagi yashil loyihalarning kuchli, kuchsiz, xavf va imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

4.Modellashtirish:Milliy iqtisodiyonning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi asosida O‘zbekiston uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirish modelini yaratish.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

№	Yo‘nalishlar	Vazifalar
1	Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish	“Quyosh uy” loyiha orqali amalga qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish
2	Energiya samaradorligini joriy qilish	Energoaudit tizimini joriy etish
3	Yashil moliyalashtirish mexanizmlari	“yashil kreditlar” va “ekologik markirovkalash”
4	Ekologik boshqaruvni joriy qilish	“Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki , yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik zarurat , balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ta'minlovchi strategik yo'nalish hisoblanadi."O'zbekiston-2030"strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar-energiya samaradorligini oshirish,qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish ,tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash- yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan to'liq uyg'unlashgan .

Yashil iqtisodiyot modelining joriy etilishi sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, energetika tarmoqlarida resurs tejamkorligini oshirish ,ishlab chiqarish xaarajatlarini minimallashtirish imkonini yaratadi . Shu bilan bir qatorda ,yangi ish o'rinlarning yaratilishi, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2025-yil 30-yanvar kunidagi PF-16-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilini amalga oshirish to'g'risidagi farmoni.

2.Prezidentimizning 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish borasidagi chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori PQ-436-son qarori bo'yicha. Олий Мажлис Конунчилик палатаси

3.O'zbekistonda "yashil" o'sish va iqlim o'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi :Ishlar To'plami .2022 Jahon banki 1818H StreetNW,WashingtonDC 20433.

4.Green Economy Policies in Central Asia :Pathways to Sustainable Development.GEF.Global Economy Facilities(GEF). (2019).

5.The Future of Electromobility –IEA's Global EV Outlook 2025.